

## Uch avlod uchrashuvi

Avlodlar orasidagi oltin zanjir - vatan ravnaqi va xalq manfaati yo'lidagi birlik, ezgu maqsadlar sari hamkorlik va jipslikdagi harakat, muborak diydordir. Katta avlod aytish mumkinki, tajriba, saboq, ibrat, o'rnak va namuna maktabidir. O'rta va kichik avlod bilan uchrashuvlarda, odatda samimiyat va maslahatlar ustuvorlik qiladi. Shu asnoda xulosalar qilinadi, boy tajribalar orttiriladi. Institutimizda tashkil etilgan "Uch avlod uchrashuvi" deb nomlangan ma'rifiy tadbir ham ana shunday ruhda o'tdi. Unda mehmon sifatida Mirzo Ulug'bek tumani Mudofaa bo'limi boshlig'i o'rinbosari To'xtaev Askar Esanovich, Mudofaa Vazirligi faxriylar kengashi a'zosi, Mirzo Ulug'bek tumani faxriylar kengashi raisi Dehqonboev Abubakr Dehqonboevich, iste'fodagi polkovnik Achilov Shavkat Jumanovichlar ishtirok etishdi.



Tadbirni moderator sifatida institut yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i Zuhridin Haydarov olib bordi. Ishtirokchilar o'zlarining hayotiy tajribasi va kasbiy faoliyatida orttirgan tajribalari borasidagi qimmatli mulohazalari bilan o'rtoqlashishdi. Ayni paytda talabalarning savollariga mufassal javob berishdi. Tadbir yakunida Z. Haydarov ishtirokchi mehmonlarga minnatdorchilik yo'sinida institut rahbariyati nomidan esdalik sovg'alarini topshirdi.



**TIQXMMI matbuot xizmati**